ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR ( RESEARCH BIB ) – 9.145, SJIF – 5,431

**Tojiboyeva Gulxumor Raxmonjonovna**

Andijon davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti

Psixologiya va pedagogika kafedrasi professori

**Nazirova Dilafruz Dilmurodjon kizi**

Psixologiya va pedagogika kafedrasi magistranti

E-mail: nazirovadilafruz51@gmail.com

Tel: +998932144818

# MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING PSIXOLOGIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining psixologik savodxonligini oshirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida psixologik bilimlar, emotsional barqarorlik, kommunikativ kompetensiya hamda bolalarning yosh xususiyatlarini to‘g‘ri anglash darajasi muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so`zlar:** maktabgacha ta’lim, tarbiyachi, psixologik savodxonlik, ijtimoiy-psixologik omillar, emotsional barqarorli.

# СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

**Аннотация:** Данная статья посвящена изучению социально-психологических аспектов повышения психологической грамотности воспитателей дошкольных образовательных организаций. В исследовании рассматриваются такие важные факторы, как психологические знания в профессиональной деятельности воспитателей, эмоциональная устойчивость, коммуникативная компетентность, а также уровень правильного понимания возрастных особенностей детей.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, воспитатель, психологическая грамотность, социально-психологические факторы, эмоциональная устойчивость.

# SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ENHANCING THE PSYCHOLOGICAL LITERACY OF PRESCHOOL EDUCATION TEACHERS

**Annotation:** This article is devoted to studying the socio-psychological aspects of improving the psychological literacy of preschool education teachers. The research examines key factors such as psychological knowledge in the professional activities of educators, emotional stability,

communicative competence, and the ability to correctly understand children's developmental characteristics.

**Keywords:** preschool education, educator, psychological literacy, socio-psychological factors, emotional stability.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar tarbiyachilarning nafaqat metodik, balki psixologik savodxonligini ham oshirishni taqozo etmoqda. Tarbiyachining psixologik savodxonligi bolalarning shaxsiy rivoji, emotsional farovonligi, ijtimoiylashuvi hamda ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bois maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyachilarning psixologik savodxonligini rivojlantirish va uning pedagogik samaradorlikka ta’sirini ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Psixologik savodxonlik tushunchasi zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda shaxsning psixologik bilimlarga egaligi, ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati hamda insonlararo munosabatlarda samarali foydalanish kompetensiyasi sifatida talqin etiladi. Mazkur tushuncha pedagog shaxsining kasbiy yetukligini belgilovchi muhim komponentlardan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda psixologik savodxonlik ko‘pincha “psixologik kompetentlik”, “psixologik madaniyat” tushunchalari bilan uyg‘un holda qo‘llaniladi. A.K. Markova, I.A. Zimnyaya, A.A. Rean kabi olimlarning tadqiqotlarida psixologik savodxonlik pedagogning kasbiy faoliyatida bolalarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, samarali muloqot o‘rnatish va tarbiyaviy ta’sirni moslashtirish imkonini beruvchi omil sifatida e’tirof etiladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida psixologik savodxonlik tarbiyachining yosh psixologiyasi, emotsional rivojlanish, motivatsiya, ijtimoiylashuv va shaxslararo munosabatlar borasidagi bilimlarini o‘z ichiga oladi. Bu bilimlar tarbiyachiga bolalar bilan ishlash jarayonida yuzaga keladigan psixologik muammolarni oldindan aniqlash va ularni samarali hal etish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida psixologik savodxonlikning pedagogik ahamiyati shundaki, ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan tarbiyachining psixologik savodxonligiga bog‘liq. Psixologik jihatdan savodli tarbiyachi bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etadi, bu esa bolalarda ijobiy emotsional holat va o‘quv faoliyatiga nisbatan qiziqishni shakllantiradi.

Psixologik savodxonlik tarbiyachiga konfliktli vaziyatlarni to‘g‘ri boshqarish, bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda ota-onalar bilan samarali muloqot o‘rnatish imkonini beradi. Shu jihatdan, psixologik savodxonlik pedagogik samaradorlikning muhim ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy ishimiz doirasida tarbiyachilarning psixologik savodxonligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari muhum ahamiyat kasbetdi. Shuningdek, tarbiyachilarning psixologik savodxonligini rivojlantirish uzluksiz kasbiy ta’lim tizimi doirasida amalga oshirilishi lozim. Bunda malaka oshirish kurslari, treninglar, seminarlar va psixologik konsultatsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Treninglar jarayonida tarbiyachilarda empatiya, refleksiya, stressga chidamlilik va muloqot kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Tadqiqotning maqsadi shuki maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyachilarning psixologik savodxonligi darajasini aniqlash, uni rivojlantirish yo‘llarini ishlab chiqish hamda psixologik savodxonlikning pedagogik samaradorlikka ta’sirini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- tarbiyachilarning psixologik savodxonligi darajasini aniqlovchi mezon va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish;
- psixologik savodxonlik va pedagogik samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik tadqiq etish;
- psixologik savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan model va trening dasturini ishlab chiqish;
- tajriba-sinov ishlari asosida ishlab chiqilgan tizim samaradorligini baholash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- tarbiyachilarning psixologik savodxonligi pedagogik samaradorlikning muhim psixologik omili sifatida ilmiy asoslandi;
- maktabgacha ta’lim muassasalari sharoitida psixologik savodxonlikning tarkibiy komponentlari aniqlashtirildi;
- psixologik savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy trening dasturi ishlab chiqildi;
- psixologik savodxonlik darajasining oshishi pedagogik samaradorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishi empirik jihatdan isbotlandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyachilar malakasini oshirish kurslarida, psixologik xizmat faoliyatida hamda pedagoglar uchun metodik qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanilishi mumkin.

Ilmiy izlanishlar doirasi biz tarbiyachilarni psixologik savotxonligini oshirish maqsadida eksperemental ishlar olib borildi. Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarining psixologik savodxonlik darajasini aniqlash, uni rivojlantirishga qaratilgan trening dasturini joriy etish hamda psixologik savodxonlikning pedagogik samaradorlikka ta’sirini empirik jihatdan asoslashdan iborat. Tajriba-sinov ishlari 2024–2025 o‘quv yillarida Andijon viloyatidagi 3 ta maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘tkazildi. Tadqiqotda jami 60 nafar tarbiyachi ishtirok etdi. Tadqiqot ishtirokchilari tajriba guruhi (30 nafar) va nazorat guruhi (30 nafar) ga ajratildi.

Psixologik savodxonlik va pedagogik samaradorlik o‘rtasidagi korrelyatsion tahlilda tajriba-sinov ishlarining navbatdagi bosqichi olib borilib, tarbiyachilarning psixologik savodxonlik darajasi bilan pedagogik samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash maqsadida korrelyatsion tahlil amalga oshirildi. Tahlil jarayonida Pearson korrelyatsiya koeffitsienti (r) dan foydalanildi.

Pedagogik samaradorlik quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholandi:

- bolalarning emotsional barqarorligi;
- mashg‘ulotlardagi faollik;
- ijtimoiy moslashuv darajasi;
- pedagogik muloqot sifati.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarni p sixologik savodxonlikni kognitiv, emotsional-refleksiv va amaliy-xulqiy komponentlar yig‘indisi asosida baholandi. Quyidagi jadvalada psixologik savodxonlik va pedagogik samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsiya natijalari aks etgan.

**Jadval 2.4**

| | Ko‘rsatkichlar | Korrelyatsiya koeffitsienti (r) | Ahamiyatlilik darajasi |
|---|---|---|---|
| 1 | Psixologik savodxonlik – emotsional barqarorlik | 0,68 | $p < 0,01$ |
| 2 | Psixologik savodxonlik – bolalar faolligi | 0,72 | $p < 0,01$ |
| 3 | Psixologik savodxonlik – ijtimoiy moslashuv | 0,65 | $p < 0,01$ |
| 4 | Psixologik savodxonlik – pedagogik muloqot sifati | 0,74 | $p < 0,01$ |

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tarbiyachilarning psixologik savodxonligi bilan pedagogik samaradorlikning barcha asosiy ko‘rsatkichlari o‘rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjud.

Xususan, psixologik savodxonlik va bolalarning mashg‘ulotlardagi faolligi o‘rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya ($r = 0,72$) aniqlangan. Bu holat psixologik jihatdan savodli tarbiyachilar bolalarning qiziqishi va faolligini samarali rag‘batlantira olishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, psixologik savodxonlik bilan pedagogik muloqot sifati o‘rtasida eng yuqori korrelyatsiya ($r = 0,74$) qayd etildi. Mazkur natija tarbiyachining psixologik bilim va ko‘nikmalari bolalar bilan sog‘lom, konstruktiv va ishonchli munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

Emotsional barqarorlik ($r = 0,68$) va ijtimoiy moslashuv ($r = 0,65$) ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqlik ham yuqori darajada ekanligi aniqlanib, psixologik savodxonlik bolalarning ruhiy farovonligini ta’minlashda muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

Statistik xulosa qilib olingan natijalar $p < 0,01$ darajada ishonchli bo‘lib, dissertatsiyada ilgari surilgan “tarbiyachilarning psixologik savodxonligi pedagogik samaradorlikni oshiradi” degan ilmiy farazni to‘liq tasdiqlaydi.

Tarbiyachilarning psixologik savodxonligi quyidagi 3 ta asosiy mezon asosida baholandi:

1. Kognitiv mezon – psixologik bilimlar (yosh psixologiyasi, emotsiyalar, motivatsiya);
2. Emotsional-refleksiv mezon – empatiya, o‘zini anglash, refleksiya;
3. Amaliy-xulqiy mezon – muloqot, konfliktlarni hal etish, pedagogik moslashuv.

Biz ilmiy maqolamiz doirasida Har bir mezon 3 darajada baholandi: past, o‘rta, yuqori. Dastlabki (diagnostik) bosqich natijalari:

**Jadval 2.1**

| Daraja | Tajriba guruhi | Nazorat guruhi |
|---|---|---|
| Yuqori | 16,7 % | 18,3 % |
| O‘rta | 43,3 % | 41,7 % |
| Past | 40,0 % | 40,0 % |
| **Jami** | **100 %** | **100 %** |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba va nazorat guruhlarida psixologik savodxonlik darajasi deyarli bir xil bo‘lib, tarbiyachilarning aksariyat qismida past va o‘rta daraja ustunlik qilmoqda. Bu holat maxsus rivojlantiruvchi ta’sir zarurligini ko‘rsatadi. Tajriba guruhida 10 haftalik psixologik trening dasturi joriy etildi. Dastur quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oldi:

- yosh psixologiyasi asoslari;
- bolalar emotsiyalarini tushunish va boshqarish;
- empatiya va refleksiya mashqlari;
- konfliktli vaziyatlarni hal etish;
- ota-onalar bilan psixologik muloqot.

Nazorat guruhida esa an’anaviy metodik faoliyat davom ettirildi. Yakuniy (nazorat) bosqich natijal tajriba guruhida yuqori darajadagi psixologik savodxonlik 30 % ga oshgani, past daraja esa keskin kamaygani kuzatildi. Nazorat guruhida esa sezilarli o‘zgarishlar aniqlanmadi.

**Jadval 2.2**

| Daraja | Tajriba guruhi | Nazorat guruhi |
|---|---|---|
| Yuqori | 46,7 % | 21,7 % |
| O‘rta | 40,0 % | 43,3 % |
| Past | 13,3 % | 35,0 % |
| Jami | 100 % | 100 % |

Psixologik savodxonlik va pedagogik samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik Pedagogik samaradorlik quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholandi:

- bolalarning emotsional barqarorligi;
- mashg‘ulotlarda faollik;
- intizom va ijtimoiy moslashuv.

Tajriba guruhida psixologik savodxonlik va pedagogik samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik

**Jadval 2.3**

| Ko‘rsatkichlar | Past daraja | O‘rta daraja | Yuqori daraja |
|---|---|---|---|
| Emotsional barqarorlik | past | o‘rta | Yuqori |
| Psixologik | past | o‘rta | Yuqori |

| | | | |
|---|---|---|---|
| savodxonlik bolalar faolligi | | | |
| Psixologik savodxonlik ijtimoiy moslashuv | past | o‘rta | Yuqori |
| Psixologik savodxonlik – pedagogik muloqot sifati | past | o‘rta | Yuqori |

Ilmiy o’rganish natijasida shuni ko‘rish mumkunki, psixologik savodxonlik darajasi oshgani sari pedagogik samaradorlik ko‘rsatkichlari ham mutanosib ravishda yaxshilangani aniqlandi. Tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- tarbiyachilarning psixologik savodxonligini maxsus treninglar orqali rivojlantirish mumkin;
- psixologik savodxonlik pedagogik samaradorlikning muhim sharti hisoblanadi;
- ishlab chiqilgan model va trening dasturi samarali ekanligi empirik jihatdan isbotlandi.

Umumiy xulosa korrelyatsion tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, tarbiyachilarning psixologik savodxonligi qanchalik yuqori bo‘lsa, maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonning samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Ushbu bog‘liqlik dissertatsiya ishining nazariy va amaliy ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. ttps://spravochnick.ru/psihologiya/perspektivy razvitiya psihologicheskoy nauki k seredine xxi века/

2. https://lex.uz/docs/3797625

3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022 yildagi 83-son 2030 yilgacha bo’lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amal ga oshirishni jadallashtirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to’g’risida» gi qarori.

4. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent.: “O`zbekiston”. 2018. -80 b.

5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutq. –Toshkent.: O`zbekistan NMIU.2016. -56 b.

6. Акрамова Ф.А. Мактабгача таълим самарадорлигининг психологик жиҳатлари. //Замонавий таълим/Современное образование. 2015. № 2. – Б.53-58.

7. Битянова М. Р. Школьный психолог: идея психолого-педаго-гического сопровождения //Директор школы. – 1997. – № 3. – С. 4-12

8. Баратов Ш. Р. Психологик хизмат асослари. – Тошкент,1999.-196 б.

9. Груздева О.В. Детская практическая психология: учебно-методическое пособие для обучающихся по направлению «Педагогика»

10. Nishanova Z.T, Alimova.G.K. A, Turg‘unboeva. G, Asranboeva M.X. –Bolalar psixologiyasi va psixodiognostikasi.:-T-2017.81-b

11.Низаева Р.Ф. Мактабгача ёшдаги болаларни ижтимоийлаштириш. /Ҳақиқий тадқиқотлар. 2020. – Б. 146-150.

12. Nuriddinovich, Sh. B. (2023). Yoshlarni individual-tipologik xususiyatlarida himoya mexanizmlari namoyon bo`lishining ijtimoiy–psixologik jihatlari. Современное образование (Узбекистан), (6 (127)).